

SOME DISCUSSIONS ON ORGANIZING TRANSPORTATION THROUGH ONLINE AGGREGATORS

Madaminov I.R.

Andijon mashinasozlik instituti 2-kurs magistranti

ABSTRACT

The article discusses the organization of online transportation in Andijan, one of the daily problems in our lives, which is important in the formation of a transparent system of transport services.

Keywords: IT solution, online aggregators, delivery, high savings, transparent transport service, healthy competition, security level, savings.

Annotatsiya

Maqolada hayotimizdagi kundalik muammolardan biri bo'lgan, shaffof transport xizmati sistemasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Andijon shahrida onlayn agregatorlar orqali yuk tashishni tashkil etish haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: onlayn agregatorlar, yuk tashish, yuqori darajadagi tejamkorlik, shaffof transport xizmati, sog'lom raqobat, xavfsizlik darajasi, tejamkorlik.

Аннотация. В статье рассматривается организация онлайн-перевозок в Андижане, одна из повседневных проблем в нашей жизни, что немаловажно при формировании прозрачной системы транспортного обслуживания.

Ключевые слова: ИТ-решение, онлайн-агрегаторы, доставка, высокий уровень экономии, прозрачный транспортный сервис, здоровая конкуренция, уровень безопасности, экономия.

INTRODUCTION

Har qanday shaharga yuk tashishda qiyinchiliklarga yo'l qo'yilmaydi, ayniqsa, agar bu shahar katta bo'lsa, transport zichligi og'ir bo'lsa va siz professional bo'lmaganlarga murojaat qilsangiz. Shaharlar bo'ylab yuk tashish juda mashhur xizmat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda, chunki savdo har kuni ko'plab kompaniyalar va jismoniy shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi. Ofis va omborlarni, kvartira va uylarni, do'kon va omborlarni ko'chirish, kompaniya bo'linmalari o'rtasida turli xil tovarlarni yetkazib berish - bularning barchasi aholi punktlarida tashish bilan bog'liq jarayonlardir. Shaharda yuk tashish muammolari mavjud. Asosiy muammo – tirbandlik, asosiy yo'llarning qurilishi va transportning katta miqdori bilan bog'liq. Logistika, bu oziq-ovqat mahsulotlari, odamlar, turli xildagi xizmatlar, resurslar, energiya, axborot va boshqalar oqimini ishlab chiqarish joyidan to bozorgacha boshqarish va nazorat qilish san'ati va ilmidir. Uning asosiy mas'uliyati xom ashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor zahiralarni ehtiyoj yuqori bo'lgan manzillarga, hatto, geografik joyini o'zgartitirib bo'lsa ham arzon narxlarda yetkazishda namoyon bo'ladi.

Logistika – bu harbiy g‘oya. Ushbu g‘oya harbiylarning o‘z bazasidan oldingi bazaga ko‘chib o‘tishi jarayonida yuzaga kelgan ehtiyojnigizida shakllangan deb hisoblanadi.

Logist – logistika va transport sohasiga taalluqli kasb sifatida o‘z ichiga ququqlik, dengiz, havo va temir yo‘ transporti turlari qamrab oladi.

Logistika ishi – bu yetkazib berish zanjirining bir qismi hisoblanadi. U turli-tuman tovar, xizmat shakllari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlarni ishlab chiqaruvchi asosiy manda bilan iste‘mol qiluvchi manba orasida mijozlar ehtiyoji, talablarini qondirish maqsadida ularning samarali harakatlanishi va saqlanishini rejalashtirish, amalga oshirish va albatta, nazorat qilishni nazarda tutadi. Logistika menejmenti deb logistikani to‘g‘ri, mohirlik bilan amalga oshirish usullarini egallagan kasb ustasiga aytiladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan yetkazib berish (ta‘minot) zanjiri deyilganda hamyonbop narxda mavjud zarur tovarning kerakli miqdorda, ayni zarur bo‘lgan vaqtda, zarur joyga yetkazilishiga aytiladi. Bu, albatta, o‘z navbatida jarayonlar ilmi sifatida ishlab chiqarishning hamma sohalarini o‘z ichiga oladi.

Logistika ishining maqsadi samarali natijani qo‘lga kiritish uchun ma‘lum bir loyihaning davriy bosqichlari, yetkazib berish (ta‘minot) zanjirlarini to‘g‘ri va ongli boshqarishdir.

Shu bilan birga malakali logistika menejerining asosiy vazifalari zahirani to‘g‘ri boshqarish, oldi-sotdi qilish, tashish, saqlash, axborot berish, maslahat berish, shuningdek, ushbu jarayonlarni rejalashtirish va tashkil etishni o‘z ichiga oladi. *печурсов*. Logistika ishini to‘g‘ri yuritish logistika menejeridan ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli bilimlarni egallashni talab etadi. Logistika menejerining savodxonligi ushbu vazifalarni muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Logistikaning ikkita bir-biridan farqlanuvchi o‘ziga xos shakllari mavjud:

1. Transport aloqalari tarmoqlari va saqlash punktlari orqali resurslar oqimini muntazam ravishda optimallashtiradi.
2. Ma‘lum bir loyihani ko‘ngildagidek, muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun resurslar ketma-ketligini muvofiqlashtiradi.

Axborotlar asrida yasharkanmiz, u axborotlar yig‘uvchi veb-saytlarsiz internet tarmog‘ida har tomonga sochilgan juda katta axborotlar makonini hosil qiladi. Vaqt g‘animat. Uni tejash lozim. Buning uchun bizga kontent-agregatorlar zarur axborot, yangilik, g‘oya, fikr, taklif, tanqid, e‘tiroz, maslahat, qo‘llanma, yo‘l-yo‘riq, maqolalarni bir joyda to‘plash imkonini beradi.

Ushbu maqolamiz yordamida axborot va yangiliklar majmui bo‘lgan veb-saytlarning ishlab chiqaruvchilar va mijozlar istagini ro‘yobga chiqarishda qulay, oson, yengil, hamyonbop va tejamkorligi qanchalik ahamiyatga egaligi haqida ham ma‘lum bir fikrlarimizni bayon qilishni lozim topdik.

Kayfiyat va ruhiyatni ko‘taruvchi bunday texnologiyalar Andijon shahrida ham onlayn WordPress agregator veb-saytini yaratish uchun ajoyib motivatsiya bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Kontent agregator sayti butun Internetdan ma‘lumotlarni to‘playdi va bir joyga to‘plab, ishlab chiqaruvchi va mijozlar tashrif buyurganida qulayliklarni taqdim etadi. Mavzu sarlavhalarini yaratishda turli-tuman tayanch so‘z va iboralardan foydalaniladi. *Сайт-агрегатор контента часто предоставляет авторство и ссылку на исходный сайт, чтобы избежать обвинений в плагиате*. Yana shunisi qiziq-ki, boshqa yangiliklar sayt-agregatorlari bizga chop etadigan maqolalarimizni kuzatishga yordam ham beradi. Natijada boshqa yangiliklar sayt-

agregatorlaridan ko'plab kontentlar olamiz, bu esa o'zimizga bo'lgan ishinchni shakllantiradi va mustahkamlaydi. Biroq chop qilgan nashrlarimizni ularda topishimiz uchun yangiliklar agregatori saytida o'z profilimizni yaratishimizga to'g'ri keladi.

Hozirgi globallashuv davrida logistika kundalik hayotimizga kirib keldi va uning tarkibiy qismlaridan biriga aylanib bormoqda. Nega endi u hayotimizning bir qismiga aylanib borayapti degan savolning tug'ilishi tabiiy. Hayotimizdagi kundalik muammolarning qaysi turi bo'lmasin, biz ularning, albatta, AT-yechimini qidiramiz. Mana shunday muammolarning AT-yechimi ma'lum bir jarayonlarni vujudga keltirayaptiki, ularni boshqarish bizdan AT bo'yicha takomillashgan bilimlarni talab etmoqda. Chunki ATning turli vositalari ishimizni ancha osonlashtiradi, yengillashtiradi, malol kelmaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti jahonda yetakchi bo'lgan davlatlar iqtisodiyotidan ancha farq qiladi. Biz mavjud g'oyalarimizni saqlab qolishga, ularni yangi texnologiyalar negizida qayta ko'rib chiqish, tahlil qilishga erinishimiz yoki, to'g'risi, xohlamasligimiz oqibatida ushbu farqlarning katta to'siqlarni keltirib chiqarayotganligini to'g'ri anglashimiz davr taqozosidir. Buning uchun xorij iqtisodiyoti tarix va o'tmishi haqidagi ma'lumotlarning o'zi yetarli bo'ladi. Ya'ni o'zaro raqobat biznesni shakllantiradi, rivojlantiradi va albatta takomillashtiradi.

Hozirda muammolarning AT-yechimi yaxshi natijalar bermoqda. Yangiliklardan qo'rqish, shubhalanish o'rniga amalda sinab ko'rish afzalroqdir. Sinov natijalari qo'rquv va shubhalarga berilishimizning oldini oladi. Negaki, bunday inert holatimiz AT-yechim provayderlarning ishini qiyinlashtirishi bilan bir ga taraqqiyotimizga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ma'lum bir mavjud muammolarning ijobiy va ahamiyatga molik AT-yechimi taklif qilinganda rad qilish o'rniga birinchi harakat bilan hech ikkilanmay, uni amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Biroq ayrim tashkilotlar singari vaqtni behuda sarflab, joriy harajatlarga e'tiborni kuchaytirish, mayda-chuyda ishlar hisobini talab qilish va ayniqsa, o'zaro munosabatlarni chuqur tahlil qilish bilan bilan ko'proq ovora bo'lish orniga taraqqiyot sari yuzlanish lozim.

Logistika aynan shunday salbiy holatlarning kelib chiqishi, rivojlanishiga imkon bermaydigan, aksincha, ortiqcha vaqt talab etadigan va asablarni yemiradigan jarayonlarni optimallashtirish bilan shug'ullanadi. Bunda unga AT juda qo'l keladi. Chunki ular mehnat unumdorligini yanada oshiradi. AT internet yordamida katta oqimdagi ma'lumotlarni to'plash, saralash va qayta ishlash,

AT katta axborotlar oqimi bilan ishlash: to'plash, saralsh, qayta ishlash, prognozlar qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga axborot almashish tezligi ham oshadi. Bu esa kishilarga qo'lidagi imkoniyatlarni mumkin qadar tezkor tahlil qilish va samarali qaror qabul qilishga yordam beradi. Natijada jahon AT-loyihalar bozori vujudga keldi. Logistika hozirda turli vazifalar: oldi-sotdi, ombor, tovar-mol, oziq-ovqat, ombor, omborlarning holati va undagi tovar-mol mahsulotlarini saqlash masalasi, transport va h.k.) ni amalga oshiradi. Uning ushbu vazifalari AT-provayderlar uchun oson, yengil va qulay. Shuni ham aytish joizki, turli xil logistik vazifalarni amalga oshirish maqsadida AT-loyihalar imkoni kengayib, bozori chaqqon bo'lib bormoqda. Avval logistik vazifalarni yakka, sanoqli loyihalar amalga oshirgan bo'lsa, hozirda ularning o'rnini o'nlab yangi xizmat ko'rsatish servislari egallamoqda.

Bizning Andijon shahrida ham xuddi shunday qiziq va juda muhim bo'lgan xizmatlardan biri – transport logistikasidan unumli foydalanishimiz mumkin. Hozirda yuk jo'natuvchilar uchun

agregatorning qaysi modeli yanada qulay bo'layapti? Albatta, mobil platforma va uning veb-versiyasi juda qulay, potensial buyurtmachilar va ijrochilar o'rtasidagi eng qulay tezkor aloqa usuli hisoblanadi.

Har tomonlama aniq mobil ilova bemaolol tarmoq xodimlarining vazifasini – axborot va hujjatlarni qabul qilish, xabarlarini yetkazish kabilarni bajarishi mumkin. Demak agregator mobil platforma asosida ishlashi kerak.

Shahar ichida yuk tashish ishlarini amalga oshirish elektron tarzda amalga oshiriladi. Buning uchun buyurtmachi maxsus saytga kirib, buyurtma beradi. AT transport servisi o'sha zahoti buyurtmadan kelib chiqib, yuk shakli, transport turi va xizmat haqini taklif qiladi va osha vaqtning o'zida servis buyurtmachiga uning joylashgan manziliga yaqin joyda turgan transport vositasini ham ko'rsatib beradi. Haydovchilik qonun-qoidalarini puxta o'zlashtirgan, AT-provayderlarini tushunadigan, o'z ishiga mas'uliyatli, transport vositasiga hushyor munosabatli haydovchilar ushbu xizmatni a'lo darajada bajaradi.

AT-provayderlari bir vaqtning o'zida ham buyurtmachi va ham haydovchining ishini yengillashtiradi: buyurtma berishda telefon qo'ng'roqlari uchun ortiqcha vaqt sarflanmaydi, yukni tashish va yetkazib berish uchun esa to'lanadigan haqning 30-35%ni tejaladi. At-provayderlarning yana bir qulayligi shundaki, xohlagan hududda o'z ishini boshlab, kengaytirib, ommalashtirib, keyingi hududga o'tishi mumkin. Bundan hech kim zarar topmaydi.

AT-provayderlarining afzalligi shundaki, buyurtmalar va transport vositalari hamda ularning yo'nalishlarini avtomatik tarzda rejalashtirib ham beradi.

Ushbu dastur o'zini xorijiy mamlakatlar, xususan, Litva va Belorussiyada o'qladi. Uning qulayligi shundaki, boshqaruvni internet bilan ishlash imkoniyati bo'lgan istalgan telefon yoki kompyuterdan amalga oshirish mumkin.

Xulosa. Andijon shahrida onlayn agregatorlar orqali yuk tashishni tashkil etish yuqori darajadagi tejamkorlikni ta'minlaydi, shaffof transport xizmati sistemasi shakllanadi, transport haydovchilari o'rtasida sog'lom raqobat vujudga keladi, mijozlarning ularga bo'lgan ishonch kuchayadi, shaharda yuk tashish xavfsizligi darajasi ortadi, bularning hammasi mijozlarga 30% tejamkorlikni qo'lga kiritishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Аксенов И.Я. Единая транспортная система. –Москва, 1987.
2. Громов Н.Н., Панченко Т.А., Чудновский А.Д. Единая транспортная система. –Москва, 1987.
3. Imomov Sh.K., To'xsanov B.S. Avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha umumiy tushunchalar. –Buxoro: Iste'dod, 2009.
4. Imomov Sh.K. Transport vositalarida yuk va yo'lovchilar tashish. –Buxoro: Iste'dod, 2003.
5. Karimov E., Niyazov B. Korxonalar va aholiga transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatish. –Toshkent, 2007.
6. Karimov E. Avtomobillarda yo'lovchilar tashish. –Toshkent, 2002.
7. Xo'jayev B.A. Yagona transport sistemasi. –Toshkent, 1984.
8. Qulmuhamedov J.R., Karimov E., Muxamedov H.H., Oxunov A.A., Doshekenov T.A. Avtomobillardan foydalanish va avtotransportda mehnat muhofazasi. –Toshkent, 2003.
9. Qudratov L., G'aniyev T. Mehnat muhofazasi. –Toshkent, 2002.